

**BUYUK MUFASSIR IMOM BAG'AVIY***Xasanov Husniddin**Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom Instituti**401-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolda imom Bag'aviy (rohimahulloh anhu) ni hayot va ijodi va u kishini "Maolimu-t-tanzil" asari haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Abu Husayn Muhammad Al-Bag'oviy, Maolimu-t-tanzil, tafsir ma'sur, shofe'iy, mufassir.

Imom, hofiz, mujtahid, faqih, sunnatni qayta tiklovchi, Abu Muhammad Husayn ibn Mas'ud ibn Muhammad Farro Bag'aviy Shofe'iy kitob va sunnati nabaviyni ixlos bilan o'rganib, o'rgatib, ular haqida kitob yozish bilan xizmat qilgan buyuk ulamolardan biridir.

Farro: Mo'ynali kiyimlar ishlab chiqarish va sotishga nisbatan ishlatiladi.

Arab tilidagi Bag'aviy so'zining: "Bo", "G'o", "Vov" harflari fatha bilan yozilib, bu Xurosonda Marv va Hirot o'rtasidagi "Bog'" va "Bog'shur" nomli shaharga, nisbatan ishlatiladi.

Yoqut Hamaviy "Mo'jamul buldon" asarida shunday degan: "Imom Bag'aviy 433/1042-yilda tug'ilgan, Zirakli esa "A'lam", kitobida imom Bag'aviy milodiy 436/1045-yili tug'ilgan ekani haqida ishora qilib o'tgan.

Abdulloh Bag'aviy ahli sunna val jamoa e'tiqodida, shofe'iy mazhabida bo'lgan. Ilm talabida Xurosonning turli hududlariga safar qilgan. Shofe'iy faqihlaridan bo'lish bilan birga, u muhaddis va mufassirlar qatoridan ham joy olgan.

Taqiyuddin Harroniyni yozishicha, Bag'aviyning tafsiri Sa'labiyni tafsiridan qisqaroq, lekin mavzu' hadislardan va bid'at fikrlardan xolidir<sup>1</sup>.

"Ma'olimut tanzil" tafsiri Ibn Kasir tafsiri bilan, shuningdek "Tafsirul Xozin" bilan ham bir muqovada nashr etilgan.

Imom Bag'aviy aqidada Qur'on va sunnatga ergashib, salafi solih imomlar yo'lida yurganlar. Tosh Kubro Zoda "Miftoh as-Sa'ada" kitobida bunday ta'rif beragan: "Hujjati qat'iy dinda aqidasi to'g'ri buyuk olim edi"- deb ta'riflaydilar.

Ibn Kasir u kishining vafoti 510/1116-yilda bo'lgan deb rivoyat qiladi<sup>2</sup>.

U zot (rohimahulloh) Xurosonning Marvruzd shahrida hijriy besh yuz o'n oltinchi yil Shavvol oyida vafot etgan va shayxi qozi Husaynning yoniga dafn qilindi va u zot yetmish yoshga yetgan edi<sup>3</sup>.

**Ustozlari:**

<sup>1</sup> "Qur'on, Tafsir va Mufassirlar" Rahmatulloh qori Obidov, Movarounnahr, Toshkent 2003 yil, 121-bet.

<sup>2</sup> Ibni Kasr. "Bidoya va nihoya" Ali Shiri y tahriri, "Dorul Ihyo' at-turos al-Arabiyy", 1-nashr, 1408 hijriy.

<sup>3</sup> Abu Husayn ibn Mas'ud al-Bag'aviy. Tahzib tafsir Bag'aviy, Doru Toyyiba Saudiya Ar-Riyod hij 1430 yil, 6-bet

Imom Bag‘aviy o‘z davrining yetuk olimi bo‘lib yetishiga, ilmda dengiz bo‘lgan ko‘plab olim, faqih, mufassir, muhaddislardan ta‘lim olgan. Imom Bag‘aviy ustozlaridan Fiqh, tafsir, hadis, kalom ilmi, va boshqa ko‘plab ilmlarni egallaydi. Imom Bag‘aviyning ustozlarini tarjima hollarini qisqacha aytib o‘tamiz:

1. Shofe‘iy mazhabi faqihi, Xuroson faqihi, “Ta‘liqot” muallifi qozi Husayn Ibn Muhammad Marvaziy Xurosondagi Shofi‘iy mazhabining shayxi. Imom Marvaziy hijriy (327-417) milodiy (928-1026) yillari yashab ijod qilgan. U kishi hijriy 417 yili Eronda vafot etgan.<sup>4</sup>

2. Abdulvohid ibn Ahmad ibn Abul Qosim Malihiy, Haraviy, Nuaymiydan rivoyat qilingan “Sahih” hadisning roviysi, solih kishi edi va ko‘p rivoyatlar undan rivoyat qilingan. U kishi 463-yili Jumodil oxir oyida 93 yoshida vafot etgan.

3. Hijoz shayxi nomi bilan mashhur bo‘lgan faqih Abul Hasan Ali bin Yusuf Juvayniy “Salavoh fiy Ulumi tasavvuf” kitobini yozgan va ko‘zga ko‘ringan faqih bo‘lib, hijriy 463-yili vafot etgan.

4. Abul Qosim Abdulkarim ibn Havozin, ibn Abdulmalik ibn Talha Naysoburiy Qushayriy Xurosoniy, zohid imom, barchaga o‘rnak bo‘lgan olim, U 465/1072-yili vafot etgan<sup>5</sup>.

#### **Shogirdlari:**

O‘z navbatida, imom Bag‘aviy egallagan ilmlarini o‘z shogirtlariga ham o‘rgatgan, uning shogirtlari ilmda peshqadam bo‘lib, o‘z davring yetuk olimlari safidan joy olgan

1. As‘ad ibn Ahmad ibn Yusuf ibn Ahmad ibn Yusuf Al-G‘anim Al-Bamanjiy al-Xatib, (548-hijriy) yili vafot etgan, At-Toj As-Subkiy “Tabaqat ash-Shofi‘iya”da zikr qilgan. ”

2. Al-Hasan ibn Muhammad ibn Abu Ja‘far al-Balxiy, Shofe‘iy, qozi Abu al-Maaliy. Abu Sa‘d ibn Samoniy u haqda rivoyat qilib, uni maqtagan va vafot etgan yilini hijriy 548 yil ekanini zikr qilgan.

3. Al-Hasan ibn Masud al-Bag‘aviy, Abu Ali, Imom Al-Bag‘aviyning ukasi, Navaviy (676 hijriy) shofi‘iy tabaqasida nomi zikr etgan. U akasidan fiqhni o‘rgangan.

4. Muhammad ibn Asad bin Muhammad bin al-Husayn ibn Al-Qosim, Majdiddin, Abu Mansur, al-Attori Shofiiyning nabirasi sifatida tanilgan, Nishopur ahlidan, asli Tusdan, U o‘sha yerda G‘azzoliy huzurida fiqh ilmlarini o‘rgangan, din imomlari va ko‘zga ko‘ringan fiqh olimlaridan bo‘lgan, “Maolim at-tanzil” va “Bag‘aviyning sunnat tafsiri” kitoblarini rivoyat qilgan. Imom Bag‘aviy besh yuz o‘n oltinchi yil Shavvol oyida Xurosonning Marv ar-ravd shahrida vafot etdi va shayxi

<sup>4</sup> Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. “Siyari a‘lamu Nubalo” 18-kitob 260-262 bet

<sup>5</sup> [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bosh\\_Sahifa](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa)

Qozi Husaynning yoniga dafn qilindi. Imom Bagʻaviy yetmish yildan ziyod umr koʻrdi.

Shofeʼiy mazhabida faqih, muhaddis, mufasssir, boʻlib qozi Husayn qoʻl ostida fiqhni oʻrgandi va u kishidan koʻplab hadis eshitgan. U kishi taqvodor, parhezkor, zohid, olim kishi boʻlib, qachon bir darsni oʻqimoqchi boʻlsalar faqat tahorat bilan oʻqir edilar, taomlarni oʻrniga faqat non yer edilar, keyinchalik nonga yogʻ surtib yeydigan boʻldilar.

Imom al-Bagʻaviy tafsir, qiroat, hadis va fiqhga oid turli kitoblarni bizlarga meros qilib qoldirgan. Uning kitoblari ulamolar tomonidan qabul qilinib, shuhrati keng tarqaldi. Bu borada Al-Hofiz Zahabiy shunday aytadi: U oʻz asarlarida baraka topdi va yaxshi niyati va ixlosligi uchun kitobi toʻliq qabul qilindi, ulamolar ularni oʻrganishda musobaqalashdi. Munaqqid Al-Basir al-Faqih ilmlarga munosabatda botiniy masalalar bilan shugʻullangan.

Imom Suyutiy rohimahulloh : “U tafsirda imom, fiqhda, hadisda imom edi”- deb taʼrif beragan.

Qurʻon va Sunnatga eng yaqin tafsir qilgan, bidʼat va zaif hadislardan eng uzoq va salomat tafsirlardan biri imom Bagʻaviyning “Maolim at-Tanzil” asari hisoblanadi. Birinchi oʻrinda Qurʻon va Sunnat, ikkinchi oʻrinda sahobalar va tobeʼnlarning soʻzlaridan naql qilingan ishonchlik tafsir hisoblanadi.

Imom Bagʻaviyning “Maolimut Tanzil” tafsiri ( Tafsir Saʼlabiy) ning muxtasari boʻlib undagi zaif hadislar va bidʼat, toʻqima gaplardan holi keltirilgan. Imom Bagʻaviy tafsir kitobini yozishda tafsir maʼsur kitoblari, tarix, siyrat, qiroat, va hadis kitoblaridan foydalanganlar.

Imom Bagʻaviy oʻz kitobini 13 ta tafsir maʼsur boʻlgan kitoblardan foydalanib, ularning eng avvali hibrul umma va qurʻon tarjimoni boʻlmish Ibni Abbos (roziallohu anhuni) tafsiridir. Unda tashqari, Mujohid, Ato ibn Raboh, Hasan Basriy, Qatoda (rohimahulloh anhumlar) tafsirlari shular jumlasidandir .

Tafsir bagʻoviyni yozishda arab tili va naxvga ham qattiq eʼtibor bergan. Oyatlarni maʼno-mazmunini ifodalash va sharhlashda qaysi lugʻat va naxv olimlardan olgan boʻlsa ismini zikr etgan. Ibn Anbariy (Muhammad ibn Qosim ibn Muhammad Abu Bakr hij 328), Ibn Kayson (Muhammad ibn Ahmad hijriy 299), Abu Ubayda Nahviy (Muammar ibn Musanna hij 209) Axfash ( Said ibn Musaʼada) Halil ibn Ahmad, Zajjoj, Sibavayh, Imom Farro, , kabi yetuk olimlar hisoblanadi.

Imom Bagʻaviyning tafsiri avvalgi mutaqaddim tafsirlardan boʻlib, ikkinchi asrda yozilgan tafsirlarni inobatga olmaganda imom Bagʻaviydan oldin juda kam tafsir kitobi yozilgan. Misol uchun: Imom Tabariy hijriy 310- yil, Saʼlabiy hijriy 427-yilda yozgan. Maʼlumki bu ikki tafsir oʻta uzun mufasssal tafsirlardan boʻlib, Bagʻaviy tafsiri esa oʻzidan avvalgi tafsirlardagi maʼlumotlarni bayon qilib beradigan darajada oʻrtacha,

malollantirib qo'yadigan uzun ham emas, o'qiganingizdan keyin hech narsani tushunib bo'lmaydigan chalkash qisqa ham emas.

Al-Bag'aviy tafsirda o'zidan oldingi salafi solihlar zikr qilingan hamma ma'lumotlarni sanadini tilga olmay naql qilgan, chunki u o'z tafsirining muqaddimasida buni zikr qilgan va har bir roviyning o'ziga xos sanadi bilan keltirgan. Tafsir ilmiga aloqasi bo'lmagan mavzular, ortiqcha so'zlardan chetlangan.

“Maolmu-t-Tanzil” asari tafsir maktablarida qanday ahamiyatga ega ekanini va qanday martabada ekanini bilish uchun bu tafsirga ulamolarning bergan ta'riflari orqali bilib olish mumkin. Imom Bag'aviyga ulamolarning bergan ta'riflari orqali u zot buyuk mufassir, muhaddis, faqih, Xuroson ahlini olimi ekanini bilib olamiz. Ibni Kasr “U kishi Ilmlarda yetuk edi va o'z zamonasining allomasi edi”- deya ta'riflaydilar .

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur'on, Tafsir va Mufasssirlar” Rahmatulloh qori Obidov , Movarounnahr, – Toshkent: 2003. – B.121.
2. Ibni Kasr. “Bidoya va nihoya” Ali Shiriy tahriri, “Dorul Ihyo' at-turos al-Arabiy”, 1-nashr, 1408 hijriy.
3. Abu Husayn ibn Mas'ud al-Bag'aviy. Tahzib tafsir Bag'aviy, Doru Toyyiba Saudiya Ar-Riyod hij 1430– B. 632
4. Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. “Siyari a'lamu Nubalo” 18-kitob B.260-262.
5. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bosh\\_Sahifa](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa)